FARG‘ONA VILOYATI QUVASOY SHAHAR HOKIMI
Q A R O R I

2022 - yil 4 - oktabr 312-11-167-Q/22 Quvasoy shahar hokimligi

Yo‘l belgilarini o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil 10-apreldagi “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi O‘RQ-348-sonli *(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013-y., 15-son, 197-modda; 2015-y., 52-son, 645-modda)* qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, Quvasoy shahar YFUK direktori I.Karimovning 2022-yil 10-avgust kungi Yuqori Muyan MFY, Qorasuv ko‘chasiga 3.4 “Yuk avtomobillari harakatlanishi ta’qiqlanadi” yo‘l belgilarini o‘rnatish maqsadida shahar hokimligining qaror loyihasini tasdiqlash to‘g‘risidagi 160-sonli aloqa xati hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy Davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6, 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Quvasoy shahar YFUK direktori I.Karimovning 2022-yil 10-avgust kungi Yuqori Muyan MFY, Qorasuv ko‘chasiga 3.4 “Yuk avtomobillari xarakatlanishi ta’qiqlanadi” yo‘l belgilarini o‘rnatish maqsadida shahar hokimligining qaror loyihasini tasdiqlash to‘g‘risidagi 160-sonli aloqa xati qanoatlantirilsin.

2. shaharning Yuqori Muyan MFY Qorasuv ko‘chasiga yo‘l xarakati ishtirokchilarini xarakatlanishini tartibga solish maqsadida 3.4 “Yuk avtomobillari xarakatlanishi ta’qiqlanadi” yo‘l belgilari o‘rnatilsin.

3. “Quvasoy yo‘llardan foydalanish” unitar korxonasi (Karimov)ga ushbu yo‘l belgilarini o‘rnatish chorasini ko‘rsin.

4. Quvasoy shahar IIB YHXG (Ibragimov)ga transport vositalari va piyodalarning xavfsiz harakatlanishi uchun ushbu yo‘l belgilariga rioya qilinishini nazorat qilish vazifasi

yuklatilsin.

5. Shahar hokimligi Axborot xizmati, “Isfayram” ro‘znomasi muxarriri O‘.Karimovalarga shahar hokimligining “Isfayram” gazetasida nashr etilishini va shahar hokimligining rasmiy veb saytiga joylashtirilishini tashkillashtirsin.

6. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari Sh.Tursunbayev zimmasiga yuklatilsin.

7. Qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Shahar hokimi **Z.K.To'rakulov**